

Tempus Milliy Ofisi (TMO) tashabbusi bilan Tempus dasturi O'zbekistondagi faoliyatiga oid barcha yangiliklar, tadbirlar va tafsilotlar TMO axborotnomasida yoritiladi

Axborotnomamiz rus va o'zbek tillarida chiqadi.

Axborotnomamiz muntazam ravishda uch oyda bir marotaba nashrga chiqadi.

Axborotnomalar TMO veb sahifasida muntazam bosiladi
<http://www.tempus.europahouse.uz/>

Axborotnomaning ushbu sonida:

Tempus "NCR" loyihasining taqdimoti

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetining 90 yilligiga bag'ishlangan xalqaro anjumani

Tempus Strukturaviy Choralar doirasidagi "UQASE" loyihasining yakuniy anjumani

Xalqaro ta'limi masalalariga bag'ishlangan Yevropa xalqaro ta'limi tashkilotining 20-chi xalqaro anjumani (EAIE)

Oliy ta'lim vazirliklar, Tempus dasturining barcha davlatlarda joylashgan Milliy ofislari va axborot punktlarning vakillari birlashtirilgan Brussel shahridagi uchrashuvi.

O'rta Osiyo va Germaniya o'rtasidagi hamkorlikka bag'ishlangan Qozog'iston Olma-Ota shahrida bo'lib o'tgan xalqaro seminari..

Tempus Strukturaviy Choralar doirasidagi "BOLERO" loyihasining yakuniy anjumani

Dastur xaqida

Dasturning joriy **Tempus IV** (2007-2013) bosqichi doirasida takliflar birinchi tanlovi bo'lib o'tdi. Tanlovga Tempus dasturining barcha qatnashuvchi davlatlardan jami 530 taklif tushdi. Tushgan takliflarning akademikaviy va texnikaviy baholashi asosida Yevropa Ittifoqiga (YI) a'zo va hamkor davlatlarining ta'lim vazirliklari va YI vakolatxonalari bilan so'nggi maslahatlarni olib borish maqsadida takliflarning qisqa ro'yxati tuzildi.

Tadbirlar

- 1) Tempus "NCR: Koinot texnologiyalar bo'yicha yangi o'quv dasturini yaratish" qo'shma loyihasining taqdimoti, 7 avgust, 2008 yil. Toshkent shahar.
- 2) Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetining 90 yilligiga bag'ishlangan anjumani. 22 avgust 2008 yil, Toshkent
- 3) Tempus dasturining Strukturaviy Choralar doirasidagi "UQASE: O'zbekiston ta'lim sohasida sifat ta'minoti" loyihasining yakuniy anjumani, 8-10 sentabr, 2008 yil, Toshkent sh.
- 4) Xalqaro ta'limi Yevropa tashkiloti (EAIE) 20-chi xalqaro anjumani 10-13 sentabr 2008 yil, Antwerpen sh.
- 5) Tempus doirasida tashkillashtirilgan ta'lim vazirliklar, Yevropa Ittifoqiga a'zo va hamkor barcha davlatlarning Tempus Milliy Ofislari va Axborot Punktlarining vakillari bilan birlashtirilgan uchrashuvi, 16-17 sentabr, 2008 yil. Brussel sh.
- 6) O'rta Osiyo va Germaniya universitetlari- aro hamkorlik anjumani. Olma-Ota, Qozog'iston. 29-30 sentabr 2008 yil
- 7) Tempus Strukturaviy Choralar doirasida "BOLERO: Boloniya Jarayoni va O'zbekiston oliy ta'limi sohasidagi islohotlar" loyihasining yakuniy anjumani. 29-30 sentabr 2008 yil, Toshkent

Tafsilotlar

1) 2008 yilning 7 avgust kuni Yevropa Komissiyasining O'zbekistondagi "Yevropa Uyi" vakolatxonasida Tempus dasturining "NCR: Koinot texnologiyalar bo'yicha o'quv dasturini yaratish" qo'shma loyihasining taqdimoti bo'lib o'tdi. Tadbirda 27 kishi ishtirok etdi jumladan Tempus dasturining doirasida O'zbekistonda joriy etilgan va yakunlangan loyihalar muvofiqlashtiruvchilari, O'zbekiston oliy ta'limi sohasidagi islohotlar bo'yicha ekspertlar Milliy Guruhi a'zolari, Tempus Milliy ofisi xodimlari va pressa vakillari. Loyiha birinchi yarim-yillik yutuqlarini loyihaning Eyropa va milliy muvofiqlashtiruvchilari, Yevropadagi hamkor DeNayer institutiga Toshkent Davlat Aviasiya Institutidan yo'naltirilgan o'qituvchilar va magistratura talabalari sonidan o'quv safarbarlik qatnashchilari - taqdim etdilar. Taqdimot mobaynida qatnashchilar loyihaning vazifalari, maqsadlari va natijalari bilan tanishdilar, jumladan koinot texnologiyalar bo'yicha bakalavr o'quv dasturini ishlab chiqish va uni samaradorligini tekshirish, yangi modullashtirilgan, mutahassislarni o'rganishga qaratilgan CAD/CAE/CAM kursini yaratish hamda ilg'or koinot texnologiyalar markazini ochish kabi muhim maqsadlar qo'yilgan. Loyihaning kutilgan yutuqlari esa yangi o'quv dasturini ishlab chiqish, yangi bilim va mahoratlarni o'zlashtirish, koinot sputniklarini ishga solish, Toshkent Davlat Texnika Universitetining o'qituvchilarning malakasini oshirish va talabalari uchun maxsus o'quv kursini Belgianing DeNayer institutining hududida tashkillashtirish, kompyuter xonasini ochish va loyihaning o'zbek, rus va ingliz tillarda veb sahifasini ochish hamda Denayer institutining xodimlari yordami bilan namunaviy darslarni namoyish etishlarni kiritadi.
www.NCR-TGAI.eu



Tempus "NCR: Koinot texnologiyalar bo'yicha yangi o'quv dasturini yaratish" Qo'shma Loyihasining taqdimoti

2) Joriy yilning 22 avgust kuni Toshkentdagi Dedeman mehmonxonasida "Respublika oliy ta'limi, fan va texnika sohasini rivojlanishida O'zbekiston Milliy Universitetining hissasi" mavzusidagi xalqaro anjumani bo'lib o'tdi. Mazkur anjuman Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetining 90-yilligiga bag'ishlangan bo'lib O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi, Respublika Fanlar Akademiyasi va Milliy Universiteti tomonidan tashkillantirildi. Tadbirda Respublikamizning Senat a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi deputatlari, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va tashkilotlar, ijtimoiy tashkilotlar vakillari ishtirok etdilar. Anjuman mehmonlari qatorida Tempus dasturining O'zbekistondagi vakillari, hususan Tempus Milliy ofisining (TMO) muvofiqlashtiruvchisi A.K. Abdurakhmanova ishtirok etdi. TMO muvofiqlashtiruvchisi qilgan "O'zbekiston Milliy Universitetining xalqaro aloqalarini rivojlantirish va yangilash" taqdimotidan anjuman qatnashchilari M. Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti 1994 yildan boshlab Tempus dasturi O'zbekistonda amalga oshirilishi boshidan buyon faol ishtirok etayotgan respublikamizning ilg'or universitetlari qatoridagiligi anglagi. Bugungi kunda

Yevropa Komissiyasi tomonidan 67 hududiy va mahalliy qo'shma loyihalar moliyalashtirildi, jumladan 11-si Milliy Universitetning ishtirogi bilan tarix, psixologiya, chet (eyvro) tillari va xalqaro aloqalar, universitet boshqaruv tizimini yangilash, o'quv kurslari va dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, axborot texnologiyalarini va ta'lim sohasida sifat ta'minoti tizimini qo'llanilishlari va xk. sohalarida amalga oshdi.

3) 8 sentabr kuni Tempus dasturining Strukturaviy Choralari doirasida amalga oshgan "UQASE: O'zbekiston ta'lim sohasida sifat ta'minoti" loyihasining yakuniy anjumani bo'lib o'tdi. Ushbu anjuman loyiha yutuqlariga bag'ishlangan bo'lib Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universitetida (TDIU) tashkillantirildi. Ishtirokchilar qatoriga Yevropa hamkor universitetlaridan tashrif buyurgan mehmonlar, O'zbekistonda amalga oshayotgan Tempus loyihalarining muvofiqashtiruvchilari, TDIning rahbariyati va xodimlari hamda Tempus Milliy Ofisining (TMO) xodimlari kirdilar. Anjuman jarayonida ishtirokchilar yakunlangan Tempus "UQASE" loyihasining vazifalari, maqsadlari va natijalari bilan tanishdilar va ulkamining Urganch, Qarshi, Buxoro, Samarqand, Toshkent va chet davlatlardan Brussel (Belgiya) va Poznan (Polsha) shaharlaridan kelgan loyiha guruhi a'zolari taqdim qilgan ma'lumotlarni va hisobotlarni tingladilar. Loyiha tariqasida bir yil mobaynida amalga oshgan faoliyat natijasida «O'zbekiston oliy ta'lim sohasida sifat ta'minoti. UQASE modeli» qo'llanmasi ishlab chiqildi. Mazkur qo'llanmaning mualliflari qo'llanma Respublikamizning oliy ta'lim muassasalar rahbarlari uchun oliy ta'lim sohasida sifat ta'minlash masalalari bo'yicha foydali ma'lumotnomasi bo'lmishiga ishonadi.



Tempus "UQASE: O'zbekiston ta'lim sohasida sifat ta'minoti" loyihasining yakuniy anjuman ishtirokchilari

2008 yil 8 sentabr, Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universitetining majlislar zali

4) Xalqaro ta'limi masalalari uchun mas'ul Yevropa tashkiloti (European Association of International Education - EAIE) joriy yilning 10-13 sentabr kunlarida 20-chi xalqaro anjumanini tashkil etdi. Ushbu tadbir Belgiyaning Antverpen shahrida, Antverpen universiteti hududida o'tdi. <http://www.eaie.org/Antwerp/>. Har yil muntazam ravishda o'tkazalayotgan EAIE xalqaro anjumani oliy ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik masalalari bo'yicha muhim forumi deb tan olingan. Joriy yilning uchrashuvida axborot va amaliy seminarlar, munozara va tematik yig'ilishlarida 3000 nafar xalqaro ta'lim mutaxassislari qatnashdi. Ular davomiy ta'lim boshqaruvi, chetelda o'qish va talabalarga maslahat berish, ishga joylashish va amaliyot, marketing va ish joylari bilan ta'minlash, rivojlanayotgan davlatlar bilan oliy ta'lim sohasida hamkorlik, xalqaro aloqalar bo'limlari boshqaruvi, xalqaro aloqalar va talabalar/ mutaxassislar almashuvi uchun chet tillarni o'rganish, iqtisodiyot va bizneslarni o'rganish kabi munozara mavzulardagi guruhlar bo'linmagan hamkasblari bilan aloqalarni bog'lash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Anjuman axborot materiallari va ma'ruzalari yuqorida ko'rsatilgan Internet sahifasida mavjud.

5) Dasturimizning navbatdagi Tempus IV (2007-2013) bosqichi doirasida 'YevropEid' (EuropeAid) tashkiloti va Yevropa Komissiyasining ta'lim va madaniyat masalalari uchun mas'ul Bosh Rahbariyati tashabbusi bilan sentabr oyining 16-17 kunlarida Brussel shahrida 52 Yevropa Ittifoqiga a'zo va hamkor davlatlarining vakillari ishtirogi bilan katta tadbir o'tkazildi. 41 davlatning ta'lim vazirliklari vakillari anjumanda faol qatnashdilar. Anjuman doirasida hamkor davlatlarning ta'lim sohasini strukturaviy islohotlarida Ta'lim vazirliklarga bevosita yordam va oliy ta'lim sohasi islohotlari bo'yicha ekspertlar Milliy Guruhlarning faoliyatiga yordam ko'rsatish orqali Tempus dasturi kiritgan hissi muhokama qilindi. Ushbu birlashtirilgan uchrashuvda ishtirok etish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligidan oliy va o'rta maxsus ta'limni rivojlantirish Markazining rahbari Bo'ri Khafizovich Rakhimov nomlandi. Tempus Milliy Ofisidan (TMO) uchrashuvda MTO muvofiqashtiruvchisi A.k. Abdurakhmanova ishtirok etdi. (Birlashtirilgan uchrashuviga oid axborot quyidagi sahifada mavjud):
http://ec.europa.eu/education/programmes/tempus/events_en.html

6) ORTA OSIYO DAVLATLARI UCHUN TAKLIF QILINGAN TA'LIM SOHASIDAGI YEVROPA TASHABBUSI doirasida Ta'lim sohasida o'quv almashuvi masalalari bo'yicha Germaniya Agentligi (DAAD) <http://www.daad.org/> tomonidan tashkilashtirilgan O'rta Osiyo va Germaniya universitetlari-aro hamkorlikka bag'ishlangan xalqaro seminar 29-30 sentabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Olma-Ota shahrida bo'lib o'tdi. Unda Tempus dasturining O'rta Osiyo davlatlari - O'zbekiston, Qozog'iston, Q'irg'izistonda muvafaqiyatli ravishda yakunlangan Tempus loyihalari taqdim etildi. Seminar doirasida ta'lim sohada sifat ta'minlash, akkreditatsiya, ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalar o'rtasida hamkorlik o'rnatish va Tempus dasturida muvafaqiyat qatnashish masalalari muhokama qilindi. 'Erasmus Mundus - Tashqi Hamkorlik Oynasi' dasturi doirasidagi hamkorlik hamda O'rta-Osiyo va Germaniya o'rtasidagi hamkorlikni yuksaltirish masalalari alohida etiborga ega bo'ldi. Seminarda Yevropa Komissiyasining ta'lim va madaniyat masalalari Bosh Rahbariyati O'rta Osiyo mintaqasi bo'yicha Tempus dasturi uchun mas'ul muvofiqashtiruvchisi Kler Morel (Claire Morel), Germaniya oliy ta'lim muassasalari rahbarlari, Germaniya Aloqa Milliy Ofisi rahbari A. Saksenroyder (A. Sachsenroeder), xalqaro tashkilotlar va elchixonalar vakillari ishtirok etdilar. O'zbekistondagi Tempus Milliy Ofisi muvofiqashtiruvchisi A.K. Abdurakhmanova Germaniya Saarland Universiteti bilan hamkorlikda amalga oshgan Tempus "SEASCAPE: Oliy ta'lim sohasida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab quvvatlash tizimi" qo'shma loyihasining mustahkam natijalari to'g'risida so'zladilar.



Tempus dasturining O'rta Osiyo mintaqasi bo'yicha mas'ul muvofiqlashtiruvchisi Kler Morel (Claire Morel)



Olma-otadagi (Qozog'iston) xalqaro seminar qatnashchilari

7) Sentabr oyining 29-30 kunlarida Tempus dasturining Strukturaviy Choralari doirasida «BOLERO: Boloniya Jarayoni va O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim sohasidagi islohotlari» loyihasining yakuniy anjumani O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universitetida (O'zDJTU) bo'lib o'tdi. Anjumanda Fransiya, Slovakiya, Germaniya va Qirg'izistondan kelgan loyiha partnyorlari, Toshkent, Jizzakh, Samarqand, Qarshi, Urganch oliy ta'lim muassasalari xodimlari, Tempus loyihalarning muvofiqlashtiruvchilari, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar elchixonalari vakillari, Oliy ta'lim sohasini islohtlashtirish bo'yicha ekspertlar Milliy Guruhi a'zolari va Tempus Milliy Ofisi xodimlari qatnashdilar. Tadbir davomida qatnashchilar yakunlangan loyihaning vazifalari, maqsadlari va yutuqlari bilan tanishdilar. Mazkur loyiha maqsadi O'zDJTU tarjimonlik fakultetida Boloniya tamoyillariga asoslangan 'modelini' tashkil etish va loyiha natijalarini tarqatish. Loyihani amalga oshirish natijasida yozma va og'zaki tarjima bo'yicha yangi dastur ishlab chiqildi. Bugungi kunda sinxron tarjima guruhi mazkur dastur asosida bilim olayapdi. Mustaqil o'qish uchun mo'ljallangan o'quv materiallari ishlab chiqildi. Tarjimonlarni tayyorlash dasturi o'quv rejasi Yevropa o'quv standartlari inobatga olingan xolda qayta o'rganilib chiqildi va ta'lim jarayoniga kiritildi. Zamonaviy anjomlar yangi laboratoriyani ishga solish uchun sotib olindi. Loyiha davomida Yevropa oliy ta'lim sohasidagi islohotlar xaqida maqolalar nashr qilindi.



Tempus "BOLERO" Loyihasi yakuniy anjumani qatnashchilari



Tempus "BOLERO" loyihasining Yevropa hamkorlari